




UO'T: 631.45:631.44

QO'SHKO'PIR TUMANI EKIN YER MAYDONLARINING SHO'RLANISH DARAJALARINING TAHLIL NATIJALARI

Avezov Sattorbergan Atabayevich 

Geografiya fanlari nomzodi, dotsent
Urganch davlat universiteti

Yovbosarov Bekmurod Bahodir o'g'li 

O'zdavyerloyiha DILI Xorazm bo'linmasi mutaxasisi, magistrant

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani hududlar kesimida sug'oriladigan ekin maydonlarining 2025-yil holatiga ko'ra sho'rlanish darajalari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida tumandagi yer maydonining meliorativ holati o'rganilib, sho'rlanishning turli darajalari bo'yicha aniqlangan. Olingan natijalar tuman qishloq xo'jaligi yerlarining unumdorligini oshirish va sho'r yuvish tadbirlarini rejalashtirish uchun xizmat qiladi..

Kalit so'zlar: sho'rlanish darajasi, yer resurslari, tuproq unumdorligi, sug'oriladigan yerlar, meliorativ holat

Abstract. This article analyzes the salinity levels of irrigated crop areas of Koshkupir district of Khorezm region as of 2025 by territories. During the study, the reclamation state of the district's land area was studied and determined according to various levels of salinity. The results obtained serve to increase the fertility of agricultural lands of the district and to plan salt leaching activities

Keywords: salinity level, land resources, soil fertility, irrigated lands, reclamation state

Аннотация. В данной статье анализируются уровни засоления орошаемых посевных площадей Кушкупирского района Хорезмской области по состоянию на 2025 год в разрезе территорий. В ходе исследования было изучено мелиоративное состояние земельных площадей района, определены различные степени засоления. Полученные результаты служат для повышения плодородия сельскохозяйственных земель района и планирования мероприятий по промывке солончаков.


Ключевые слова: степень засоления, земельные ресурсы, плодородие почвы, орошаемые земли, мелиоративное состояние



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish bevosita sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatiga bog'liqdir. Xorazm viloyatida tuproq unumdorligini saqlash va sho'rlanishga qarshi kurashish strategik ahamiyatga ega. Global iqlim o'zgarishi, suv resurslarining tanqisligi va yer osti suvlari sathining ko'tarilishi natijasida tuproq qatlamida tuzlarning to'planishi qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini keskin pasaytiruvchi asosiy omil bo'lib qolmoqda. Hozirgi kunda tumandagi jami ekin maydonlarining atigi 14 foizi (3,494.1 ga) sho'rlanmagan toifaga kiradi, qolgan 86 foiz (22,068.6 ga) maydon esa turli darajada sho'rlanish jarayonlariga duchor bo'lgan. Ushbu tadqiqotning dolzarbligi Qo'shko'pir tumani massivlari kesimida sho'rlanish darajalarini aniq raqamlar asosida tahlil qilish, sho'r bosgan maydonlarning hududiy taqsimotini o'rganish va shu asosda sho'r yuvish hamda drenaj tizimlarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu esa tumanda yer resurslaridan oqilona foydalanish va barqaror hosildorlikka erishish imkonini beradi.



1-rasm Tadqiqot qilinayotgan hudud

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqot obekti sifatida Qo'shko'pir tumanidagi 14 ta hududning 2025-yil holatiga ko'ra meliorativ holati tavsifi olingan. Tadqiqotda tahlil, qiyosiy o'rganish va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Yerlarning sho'rlanish darajasi O'zbekistonda qabul qilingan klassifikatsiya bo'yicha (sho'rlanmagan, kuchsiz, o'rtacha, kuchli va juda kuchli) guruhlariga ajratildi. Jami 25,562.7 gektar maydonning sho'rlanish darajasi hududlar kesimida foiz va gektar ko'rsatkichlarida tahlil qilinadi.



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIK KARANTINI

NATIJALAR VA MUNOZARA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Qo'shko'pir tumanidagi jami 25,562.7 gektar sug'oriladigan ekin maydonlarining meliorativ holati o'ziga xos xususiyatlarga ega. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, tumandagi yerlarning 3,494.1 gektari (14 %) sho'rlanmagan maydonlar toifasiga kiradi Qolgan 22,068.6 gektar (86 %) maydonda esa turli darajadagi sho'rlanish jarayonlari kuzatiladi, bu esa hududda meliorativ tadbirlarni tizimli ravishda amalga oshirish zarurligini ko'rsatadi.

Sho'rlanish darajalari bo'yicha tahlillar quyidagi ijobiy va tahliliy jihatlarni ochib berdi: Kuchsiz sho'rlangan yerlar: 10,210.8 gektar bilan eng katta ulushni tashkil etadi Bu maydonlarda agrotexnik tadbirlarni o'z vaqtida o'tkazish orqali yuqori hosildorlikni saqlab qolish imkoniyati mavjud. O'rtacha sho'rlangan yerlar: 6,977.2 gektar Kuchli va juda kuchli sho'rlangan yerlar: mos ravishda 2,256.8 ga va 2,623.8 ga maydonni egallaydi.

1-jadval

Qo'shko'pir tumani hudulari sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi

T/r	Hududlar nomi	Sug'oriladigan yerlar maydoni, ga	Shu jumladan sho'rlanish darajasi bo'yicha				
			Sho'rlanmagan	Kuchsiz	O'rtacha	Kuchli	Juda kuchli
			ga	ga	ga	ga	ga
1	Guliston	1696,9	398,2	626,5	307,7	232,7	131,8
2	M.Raximov	2665,6	506,8	984,5	959,3	182,6	32,4
3	Axunboboyev	1603,6	253,4	669,7	325,8	264,2	90,5
4	Az Zamaxshariy	1490,3	416,3	483,3	271,5	268,5	50,7
5	Xorazm	1174,7	271,5	533,4	268,5	90,5	10,8
6	Toshkent	1695,7		984,5	579,2	119,2	12,8
7	O'zbekiston	1174,7	352,4	207,9	441,7	161,1	11,6
8	Nezaxos	2294,1	253,4	841,3	597,3	162,9	439,2
9	O.Jumanyazov	3092,6	214,8	1306,7	984,5	126,7	459,9
10	I.Bekmanov	1834,5	320,5	651,6	411,7	161,1	289,6
11	Obod	1521,4		633,5	429,6	126,7	331,6
12	I.Ibragimov	2038,1	126,7	886,9	590,7	125,3	308,5
13	Ittifok	1408,1	253,4	434,4	429,6	108,6	182,1
14	A.Kurbonov	1872,4	126,7	966,6	380,1	126,7	272,3
Tuman bo'yicha:		25562,7	3494,1	10210,8	6977,2	2256,8	2623,8


Hududlar kesimida tahlil qilinganda, "Obod" va "Toshkent" massivlarida sho'rlanmagan maydonlar qayd etilmagan bo'lib, bu hududlar meliorativ jihatdan alohida e'tibor talab qiladi "O. Jumanyazov" massivida eng ko'p umumiy yer maydoni mavjud bo'lsa-da (3092.6 ga), uning asosiy qismi sho'rlanishning turli





AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLAR KARANTINI

bosqichlarida turibdi "Nezaxos" va "I. Bekmanov" kabi hududlarda esa sho'r yuvish va drenaj tizimlarini optimallashtirish dolzarb hisoblanadi. Munozara jarayonida shuni ta'kidlash joizki, ushbu holat global iqlim o'zgarishi va yer osti suvlari sathining ko'tarilishi kabi tabiiy hamda texnogen omillar ta'sirida yuzaga kelmoqda. Mavjud holatni yaxshilash uchun suv resurslaridan oqilona foydalanish va sho'r yuvish tadbirlarini ilmiy asoslangan normalar asosida rejalashtirish maqsadga muvofiqdir.



1-diagramma Qo'shko'pir tumani sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi foizda

XULOSA

Qo'shko'pir tumani sug'oriladigan yerlarining meliorativ holatini o'rganish natijasida quyidagi ilmiy xulosalar shakllantirildi:

Tumandagi sug'oriladigan yerlarning asosiy qismi (86 foizi) sho'rlanish jarayonlariga duchor bo'lgani sababli, hududda tuproq unumdorligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar talab etiladi. Kuchsiz sho'rlangan yerlarning salmoqli ulushi (10,210.8 ga) ushbu maydonlarda meliorativ holatni barqarorlashtirish uchun katta salohiyat mavjudligidan dalolat beradi. "Obod", "Toshkent" va "Nezaxos" kabi massivlarda meliorativ holatni yaxshilash uchun kollektor-drenaj tarmoqlarini ekspluatatsiya qilish ishlarini kuchaytirish lozim. Tuman miqyosida barqaror qishloq xo'jaligini yuritish uchun zamonaviy geoaxborot bazalarini yaratish va yerlarning sho'rlanish darajasini muntazam monitoring qilib borish tavsiya etiladi. Mazkur chora-tadbirlarning amalga oshirilishi tumanda yer



AGRO KIMYO HIMOYA VA O'SIMLIKLER KARANTINI

resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi yer fondi bo'yicha statistik ma'lumotlar.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish to'g'risidagi Nizom, 22-son qaror. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Yer Kodeksi. (2021). O'zbekiston Respublikasi yer munosabatlari to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari. Toshkent: Adolat.
4. R.A.Turayev, B.N.Inamov.O.U.Davronov S.Z.Safayev A.A.Abdisalamov. Sug'oriladigan yerlarni xatlovdan o'tkazish va geoaxborot bazasini yaratish-uslubiy qo'llanma. Toshkent, 2024.
5. Abdullayeva M.T. Qishloq xo'jalik ekinlari monitoringini tashkil etish. Monografiya. Toshkent, 2024.
6. Xojiyev K.M. Yer hisobini yurutish uslubiyatini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent, 2024.